



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 19-fevral

VII-6-18-7-96-K/25

Kattaqo‘rg‘on tumani

Tumanda qonuniylikni mustahkamlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish borasida 2024-yil davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman prokurori Sh.Xolmurzayevning axboroti to‘g‘risida

Tumanda qonuniylikni mustahkamlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish borasida 2024-yil davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman prokurori Sh.Xolmurzayevning axborotini tinglab, Kattaqo‘rg‘on tuman prokuraturasining 2025-yil 6-yanvardagi 7-7-2025-sonli axborotnomasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi”gi Qonuning 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining yettinchi chaqiriq, oltinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tumanda qonuniylikni mustahkamlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish borasida 2024-yil davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman prokurori Sh.Xolmurzayevning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman prokurori (Sh.Xolmurzayev)ga:

- O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda Davlat dasturlari ijrosini ta’minalash;

- fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini ta’minalashga qaratilgan qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazoratni yanada kuchaytirish;

- barcha sohalarda qonunchilik ijrosi ustidan qat’iy nazorat olib borish ishlarini kuchaytirish;

- tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan dasturlar ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, kichik va o‘rta biznesni keng qo’llab-quvvatlash va faoliyatiga to‘siq bo‘layotgan omillarni bartaraf etish choralarini belgilash va amalga oshirish;

- sog‘liqni saqlash va ta’lim-tarbiyaga qaratilgan qonun hujjatlari ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish;

-tumanda jinoyatchilikka, ayniqsa, korrupsiya va poraxo'rlik, tovlamachilik, firibgarlik kabi jinoyatlarga va uyushgan jinoyatchilikning boshqa ko'rinishlariga qarshi kurashish borasida keng jamoatchilik bilan hamkorlikda profilaktik tadbirlar o'tkazib borish;

-tumanda olib borilayotgan islohotlar jarayonida, barcha jabhalarda qonun ustuvorligini ta'minlash, jumladan "Qonun ustuvor - jazo muqarrar" tamoyiliga qat'iy rioya qilinishi;

-aholi o'rtasida "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining huquqiy targ'ibotini yanada kengaytirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, bunda, asosiy e'tiborni o'zini-o'zi boshqarish organlariga qaratish tavsiya etilsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish, xalq deputatlari tuman Kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalar bo'yicha doimiy komissiyasi (R.Djurayev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKNOVICH